

TARJIMADA EKVIVALENTLIK TUSHUNCHASI

Maxmanova Fayruza Fazliddin qizi

Qarshi davlat universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi

2-kurs talabasi

maxmanovafayruza8@gmail.com

+998918114884

Ilmiy rahbar: Yo'ldoshev Dilmurod

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17785621>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima nazariyasining muhim tushunchalaridan biri bo'lgan ekvivalentlik masalasi keng yoritiladi. Tadqiqot davomida ekvivalentlik tushunchasining mohiyati, turlari hamda tarjima jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada ekvivalentlikning leksik, semantik, grammatik va pragmatik darajalari izohlanib, ularning nazariy asoslari ilmiy manbalar asosida ochib beriladi. Shuningdek, turli olimlarning ekvivalentlikka bergan ta'riflari qiyosiy tahlil qilinadi. Amaliy qismda esa asl matn va tarjima matn o'rtasidagi moslikni ta'minlash usullari konkret misollar orqali ko'rsatib beriladi. Maqola tarjima jarayonida ekvivalentlikni saqlash tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslaydi hamda tarjimon uchun muhim bo'lgan metodik tavsiyalarni taqdim etadi. Tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi va amaliyotida ekvivalentlik tushunchasini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ekvivalentlik, tarjima nazariyasi, semantik moslik, pragmatik tarjima, tarjimon strategiyasi, tarjima sifati.

Abstract: This article extensively discusses the concept of equivalence, one of the key notions in translation theory. The study analyzes the essence, types, and the role of equivalence in the translation process. The article explains the lexical, semantic, grammatical, and pragmatic levels of equivalence, elaborating on their theoretical foundations based on scholarly sources. It also provides a comparative analysis of various scholars' definitions of equivalence. In the practical section, methods for ensuring correspondence between the source text and the translated text are demonstrated through concrete examples. The article argues that maintaining equivalence in the translation process directly affects translation quality and presents important methodological recommendations for translators. The findings of the research contribute to a deeper understanding of the concept of equivalence in both translation theory and practice.

Keywords: equivalence, translation theory, semantic equivalence, pragmatic translation, translator strategy, translation quality.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается понятие эквивалентности, одно из ключевых понятий в теории перевода. В ходе исследования анализируются сущность эквивалентности, её виды и роль в процессе перевода. В статье объясняются лексические, семантические, грамматические и прагматические уровни эквивалентности, а также их теоретические основы на основе научных источников. Кроме того, проводится сравнительный анализ определений эквивалентности различных ученых. В практической части через конкретные примеры демонстрируются методы обеспечения соответствия между исходным текстом и переведённым текстом. В статье обосновывается, что сохранение эквивалентности в процессе перевода непосредственно влияет на качество перевода и представлены важные методические рекомендации для переводчиков. Результаты исследования способствуют более

глубокому пониманию понятия эквивалентности как в теории перевода, так и на практике.

Ключевые слова: эквивалентность, теория перевода, семантическая эквивалентность, прагматический перевод, стратегия переводчика, качество перевода.

KIRISH

Turli millatlarni bir-biriga bog'lab turuvchi madaniyatning eng asosiy omili bu tarjimashunoslikdir. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi bo'lib, tarjima orqali olimu fuzalolarning, shoirlarning asarlari turli tillarga tarjima qilinib, elatlar o'rtasidagi rishtalar bir-biriga bog'lanib kelingan. Tarjimaning hamma til uchun eng mashaqqatli hisoblangan turi ham aynan ekvivalent variantini topib tarjima qilishdir. Tarjima matni ham asliyat matniga teng bo'lib, u bilan bir yaxlitlik tasavvurini uyg'otishi kerak. Shunga binoan, tarjima vazifalaridan biri-tarjima matn asliyatning to'liq kommunikativ o'rnini egallashi va asliyat o'quvchisi imkoniyatiga teng darajadagi badiiy zavq, mazmuniy va strukturaviy uyg'un muvozanatni taqdim etishdir. Bunday muvozanat tarjimaning barcha jabhalarini qamrab olishi lozim. Tilshunos va tarjimashunoslarning ekvivalentlik masalasi bo'yicha bergan fikrlari turlichadir. Ayrim tarjimashunoslar fikricha, tarjima qilinayotgan til me'yoriga qat'iy amal qilgan holda asosiy mazmunni berish ekvivalent tarjima bo'lib, bu maqbul holat ekanligi ta'kidlanadi. Umuman olganda "ekvivalent" tenglik bo'lib, birinchidan, ekvivalentlikda bir xillik umuman o'xshamaslik nazarda tutilsa, ikkinchidan, ekvivalent almashtirishdir.

ASOSIY QISM

Ekvivalentlik – bu tarjima jarayonida eng ko'p murojaat etiladigan tushunchalardan biri bo'lib, u tarjimada muqobillik darajasini ko'rsatish bilan birgalikda leksik birliklarni asliyat tilidan tarjima tiliga olib o'tish usuli sifatida ham foydalaniladi. Mazkur risolamizda ekvivalentlikning tarjimadagi aynan mana shu funksiyasi haqida so'z yuritamiz. J.Abdug'aniyevaning fikricha, ekvivalentlik tarjimada bir necha vazifalarni bajaradi, jumladan, u tarjimaning asosiy hodisasi hisoblanib, tarjimini o'rganishda katta samara beradi hamda tarjimalarni tahlil qilish uchun foydali kategoriyalar tarkibiga kiradi. Ekvivalentlik sohasi morfemalar, so'zlar, iboralar, jumlarlar, idiomalar va atamalar kabi til birliklarini qamrab oladi. J.Katfordning fikricha, tarjima amaliyotining asosiy muammosi tarjima tilida ekvivalentlar topishdir. Tarjima nazariyasining asosiy maqsadi tarjima ekvivalentligining tabiati va hodisalarining tavsifini berish.

Tarjimonlar ekvivalentlik yondashuvidan foydalangan holda tarjima bilan o'z o'quvchilariga "standart" ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar. Shunga qaramay, ekvivalentlik tushunchasi bir nechta muammolarni keltirib chiqaradi, chunki biz uni turli xil uslublarda talqin qilishimiz mumkin. Kontekst kabi jihatlar xam ekvivalentlikda ko'rib chiqiladi. Shunga aloqador holda, J.Katford tarjimaga "bir tildagi matn xosil qiluvchi materiallarni boshqa tilda ekvivalent bo'lgan matn hosil qiluvchi materiallar bilan almashtirish yoki o'zgartirish", deb ta'rif beradi. Ekvivalentlik borasida juda ko'p olimlar o'z qarashlarini bildirib o'tishgan. Bizning ham bu masalaga e'tiborimiz qaratilishi matnda uchraydigan turli lisoniy vositalarning morfologik, sintaktik, leksik, stilistik sathlardan asliyat va tarjima tillarida o'zaro ekvivalent yoki ekvivalenti mavjud bo'lmaslik holatlari bilan aloqadorlikda yuzaga keladi. Tarjimada ekvivalent jarayoni manba tilidan tarjima tiliga o'tishda o'quvchida to'g'ri ma'lumotni shakllantirish holatida sodir bo'ladi. Tarjimaning maqsadi asliyat va tarjima matni o'rtasida ekvivalentlik aloqasini o'rnatish bo'lganligi sababli, to'laqonli tarjimini ikki mezon bo'yicha baholash mumkin:

1) ishonchlilik va anqlik (asliyat matnning ma'nosini unga fikr qo'shmasdan yoki olib tashlamasdan aniq tarjima qilish);

2) shaffoflik (ma'lum bir maqsadda tilning grammatik, sintaktik va idiomatik konventsiyalarini saqlab qolish).

S.Xalversonning yondashuviga ko'ra, "ekvivalentlik ikki ob'ekt o'rtasidagi munosabatlar sifatida belgilanadi va munosabatlar har qanday salohiyat, fazilatlar nuqtai nazaridan o'xshashlik, tenglik munosabatlari sifatida tavsiflanadi". Ekvivalent tarjima ikki til va ikki matn o'rtasida o'zaro shakliy va mazmun jihatidan yaqinlik hosil qilganda yuzaga keladi. A.Pimning ta'kidlashicha, "ekvivalentlik tarjimini belgilashi kerak, tarjima esa o'z navbatida ekvivalentlikni belgilaydi". M.Baker o'zining "In other words: A Coursebook on Translation" asarida tarjima jarayoniga tegishli turli bosqichlarda ekvivalentlik g'oyasini va tarjimaning barcha o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Tadqiqotchilar o'rtasida ekvivalentlik va muqobillik borasida ma'lum bahslar yuzaga kelgan va hozirda ham mavjud. Ayrim tarjimashunoslar bu ikki ibora bir xil hodisa, deb ta'kidlasa, boshqalarning fikricha, muqobillik ekvivalentlikning tarjimasini, degan fikrda. Umuman olganda "ekvivalent" tenglik bo'lib, birinchidan, ekvivalentlikda bir xillik umuman o'xshamaslik nazarda tutilsa, ikkinchidan, ekvivalent almashtirishdir. Masalan:

Maybe there is some chemistry between us that doesn't mix. – Insonlar tabiati turlichadir.

A rolling stone gathers no moss. – Daraxt bitta joyda ko'karadi.

That's a pretty thing to say. – Uyat!

Har uchala misolda so'zma so'z tarjima kuzatilmaydi, tarjimon iborani ibora bilan almashtirishi, agar buni iloji bo'lmasa ekvivalentini keltirishi kerak, lekin so'zma so'z tarjima har doim ham to'g'ri kelavermaydi. Bundan tushunsa bo'ladiki, tarjimaning asl maqsadi – o'quvchi yoki tinglovchi uni asliyat bilan bir xilda qabul qilishidir. Sinxron tarjimada esa ketma-ket tarjimadan farqli ravishda ekvivalentlik qisman yo'qolishi mumkin.

Ekvivalentlikning hozirda uch xil turi mavjud:

1. To'liq ekvivalentlik – barcha parametrlar (leksik, semantik, stilistik) to'liq saqlanib qoladi. O'zbek tili bilan ingliz tili struktur jihatdan farqli bo'lganligi bois tarjimadagi misol rus tilida keltirildi:

There might be some small pickings left, from those who would be willing to continue, and later it would be necessary to decide if they were worth while. Кое- что ему еще, наверно, останется - от тех, кто захочет продолжать дело. А дальше уже придется решать, стоит ли этим заниматься.

2. Qisman ekvivalentlik – ma'nosi yetkazib berilgan holda farqli jihatlari ham bo'ladi. Masalan:

Experience changed the ideas of this British officer. American airmen started the process of "brain-washing". He saw them machine-gun a road full of refugees. Britaniya askarining tajribasi uning o'y-xayollarini ostin-ustun qilib yubordi. Ayniqsa, Amerika uchuvchilari uni bir zumda "ulg'aytirib" qo'ydilar. U qochoqlar to'lda yo'lakning tinimsiz o'qqa tutilishining guvohi bo'ldi.

3. Inklyuziya – biror so'z yoki tushunchaning tarjima qilinayotgan tilga tushunchaviy ekvivalenti mavjud bo'lmaganda foydalaniladi. Bunda tarjimon keng qamrovli tushuntirishlar

orqali tarjimani yetkazib beradi. Lekin bu metod tarjima qilinayotgan soha va uning terminologiyasida ma'lum darajada bilim talab qiladi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, tarjimada ekvivalentlik o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, u til sathlari bo'yicha asliyat va tarjima matnlarining bir-biriga mosligini namoyon etadi. Ekvivalentlik tarjima usuli sifatida shakily, dinamik, funksional, madaniy hamda tasviriy ekvivalentlik turlariga tasniflanadi. Ularning har biri tarjimada leksik muammolarni bartaraf qilishga yordam beradi. Ko'pgina tadqiqotchilarning izlanishlaridan ma'lum bo'ldiki, iboralar tilning yaxlit lug'aviy birligi sifatida uni grammatik, semantik, funktsional, xatto sotsiologik jihatdan o'rganish mumkinligi ko'rsatiladi. Bundan tashqari, talay iboralar milliy xususiyatga egadirki, bu hol tarjimonlarga qiyinchiliklar tug'diradi. Har bir til ibora zahirasi tarkibida xalq hayotiga mansub ijtimoiy voqea xodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, ruhiy holatlar, diniy tasavvur, milliy an'ana va urf-odatlar o'z aksini topgan bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ланчиков В.К., Семантические и стилистические аспекты перевода, –М., 1977. – С.40.
2. Лайонз Джон., Лингвистическая семантика //Языки славянской культуры.– У.,2003. – С.8-15.
3. Швейцер А.Д. Теория перевода.//N. Neubert A. Text and translation. Leipzig, 1985.- R. 55.//– М., 1988.
4. Abduganiyeva J.R. Consecutive Interpretation Quality Assessment Within Training
5. Process. ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2023. – №1/7. – Б. 22-25.
6. Baker M. In Other Words. A course book on translation. Second edition. – London and New York. Routledge: Taylor and Francis Group, 2011. -232 p.
7. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – Indiana: Oxford University Press, 1965. – 236 p.
8. Fatxutdinova I.A. Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 | Special issue 2.
9. Nida E. Towards a Science of Translating. Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden, 1964.